

O'QUVCHILARDA AN'ANAVIY VA MUMTOZ KUY-QO'SHIQLARGA BO'LGAN QIZIQISHNI OSHIRISH.KUYLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH.

Ziyovuddinova Gulruksor Rivojiddin qizi
Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqola o'quvchilarda an'anaviy va mumtoz kuy-qo'shiqlarga bo'lgan qiziqishini hamda kuylash malakalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan.Unda milliy musiqa merosimizning tarbiyaviy va estetik ahamiyati,mumtoz kuy-qo'shiqlardan samarali foydalanish yo'llari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *an'anaviy,mumtoz,bastakor,diapazon,maqom.*

ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕРЕСА УЧАЩИХСЯ К ТРАДИЦИОННЫМ И КЛАССИЧЕСКИМ ПЕСНЯМ-КЮЯМ. РАЗВИТИЕ ПЕВЧЕСКИХ НАВЫКОВ.

Аннотация: *Настоящая статья посвящена вопросам повышения интереса учащихся к традиционным и классическим песням-кюям (мелодиям-песням), а также развитию их певческих навыков. В ней анализируется воспитательное и эстетическое значение нашего национального музыкального наследия и рассматриваются пути эффективного использования классических песен-кюев.*

Ключевые слова: *Традиционный, классический (мумтоз), композитор (бастакор), диапазон, маком.*

INCREASING STUDENTS' INTEREST IN TRADITIONAL AND CLASSICAL MELODIES AND SONGS. DEVELOPING SINGING SKILLS.

Annotation: *This article highlights the issues of increasing students' interest in traditional and classical melodies and songs, as well as the development of their singing skills. It analyzes the educational and aesthetic significance of our national musical heritage and explores effective methods for utilizing classical melodies and songs.*

Keywords: *traditional, classical, composer, vocal range (diapason), makom.*

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodda musiqiy didni shakillantirish,ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.Ayniqsa o'quvchilarda an'anaviy mumtoz kuy-qo'shiqlarga bo'lgan qiziqish,ularda kuylash malakalarini rivojlantirish dolzarb muammoga aylanmoqda.

Chunki mumtoz va an'anaviy musiqa xalqimizning boy tarixiy va ma'naviy merosi bo'lib,u yosh avlodda badiiy didni,estetik tafakkurni shakillantiradi.An'anaviy kuy-qo'shiqlarni o'rgatish orqali ustoz-shogird an'analarini davom ettirish biz yosh avlod qo'lida.

An'anaviy va mumtoz kuy-qo'shiqlarni tarbiyaviy ahamiyati

An'anaviy va mumtoz kuy-qo'shiqlar o'zida chuqur va yuksak ma'no, nafis ohang badiiylikni mujassam etadi. Ushbu kuy-qo'shiqlar orqali o'quvchilarda o'zlikni anglash, tarixiy xotira va madaniy me'roslarga bo'lgan hurmat, go'zallikni his etish, ijobiy fazilatlarni shakillantirish, vatanga, onaga bo'lgan muhabbatni oshirishga o'rgatadi.

Mumtoz ashula va maqom yo'llari o'quvchilarda musiqiy eshitish qobiliyatlarini rivojlantirib, ularni sabr-toqatli, mulohazali bo'lishga o'rgatadi. O'quvchilarni maqomga bo'lgan qizishlarini oshirish uchun kuy va qo'shiqlar yaratilish tarixi, batakori va hofizlari haqida qiziqarli ma'lumotlar berish;

Audio va video yozuvlardan foydalanib, jonli ijro namunalari bilan tanishtirish;

Maqom va xalq qo'shiqlari, mumtoz ashulalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish;

Musiqiy o'yinlar, viktorinalar va ijodiy topshiriqlar tashkil etish;

Iqtidorli o'quvchilarni turli tanlovlarda ishtirok etishga jalb qilish va iste'dodlarini namoyon qilish va sahna madaniyatini shakillantirish.

O'quvchilarda kuylash malakalarini shakillantirish uchun avvalo ularni his qilib tinglashga o'rgatish lozim. Undan so'ng esa to'g'ri nafas olish, ovoz apparatini to'g'ri ishlatish, talaffuz va intonatsiyaga e'tibor berish katta ahamiyatga ega. An'anaviy va mumtoz kuy qo'shiqlar kuylash jarayonida o'quvchilarning diapazoni kengayadi, eshitish va kuylash mahorati oshadi, sahna madaniyati shakillanadi. Guruh bilan kulash esa jamoaviylik, o'zaro hamkorlik, hurmat va mas'uliyat tuyg'ularini shakillantiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda an'anaviy va mumtoz kuy-qo'shiqlarga bo'lgan qiziqishni oshirish hamda kuylash malakalarini rivojlantirish ularning ma'naviy va ahloqiy kamolotida muhim o'rin tutadi. Maqomlarimizni o'zligicha kelajak avlodga yetkazish, ustoz shogird an'alarini saqlab qolish biz yoshlar qo'lida. Bu esa barkamol avlod tarbiyasiga hizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Rajabov I. O'zbek mumtoz musiqasi va moqam san'ati - Toshkent san'at nashriyoti
2. Karimov F. O'zbek xalq musiqasi
3. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi – Toshkent
4. SH.Yormatov. Bolalar musiqa tarbiyasi metodikasi – Toshkent
5. Qosimov A, Matyoqubov O. Maqom asoslari – Toshkent.